

**RESPUBLIKAMIZDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORT TA'LIM
TIZIMIDA SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI
MUAMMOLAR VA UNING YECHIMLARI**

Qosimov Ubaydulla dotsent (SamDAQI)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning eng muhim maqsadi yurtimizda sog'lom va barkamol, yuksak ma'naviy-axloqiy fazolatlarga ega bo'lgan avlodni shakllantirishdan iborat.

Mustaqillik yillarida yangi davlat barpo etishda milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan mamlakatni modernizatsiya qilish va zamonaviy jamiyat qurish yo'lidagi murakkab, keng qo'lamli vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tarbiyalash masalasi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlar tajribalari chuqur o'rganilib, milliy hamda respublikamizga xos bo'lgan xususiyatlar, sharoitlar inobatga olingan holda kadrlar tayyorlash tuzilmasining yangi modulini ishlab choqish va uning qonuniy asoslarini yaratish zarurati tug'ildi.

Ana shunday hujjatlar qatorida "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va boshqa qator hujjatlar, qarorlar kiradi. Bu hujjatlarda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta'lim tizimini, uning boshqaruv tarkibi, pedagog xodimlarning haq-huquqlari, burch va mas'uliyati aniq belgilab berildi.

Jismoniyat ta'limining asosiy shakli va mazmunlari jismoniy madaniyat darslari hamda sport mashg'ulotlarini tashkil etadi. Bu ikki yo'nalishda qamrovi keng yuksak maqsadlarga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar mujassam. Ularning har birida umumiy va maxsus maqsadlarga qaratilgan o'ta mas'uliyatli ta'lim tarbiya jarayonlari integrallashib sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashda xizmat qiladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida malakali hartomonlama yetuk, barkamol shaxsni tayyorlashga oid qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib, mazkur talablarni nazariy va amaliy jihatdan amalga oshirishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bu borada Prizedentimiz I.A.Karimov “Aslida ta’lim –tarbiya sohasidagi islohotlarning chegarasi yo’q. Toki hayot davom etar ekan, ta’lim ham, tarbiya ham zamon o’rtaga qo’ygan yangi yangi talablarga ko’ra mutassil ravishda o’zgarib, yangilanib boradi”, - degan so’zlari bejiz emas.

Shu boisdan ham mavjud ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uning zamon talablari darajasiga ko’tarish, kadrlar tayyorlashning tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash hozirgi kunda davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta’lim sifatini oshirish, ta’lim tizimlarida ilg’or, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligiga erishish dasturli pedagogik uslublarni takomillashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilanadi.

Shuning uchun ham innovatsion texnologiya o’quv mavzulari mazmunini atroflicha ochib berish zarurdir. Muhim qoidalarni aniqlash va amalga oshirishda quyidagi jarayonlar imkon beradi:

- fanning muhim g’oyalarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega bo’lgan o’quv fanlari asosiy jihatlariga o’quvchi yoshlar e’tiborini jalb etish;

- doimiy ravishda idrok etish masalalarini murakkablashtib borib, o’quvchi yoshlarning ijodiy tashabbuskorligi va o’quv mustaqilligi ko’lamini kengaytirish, ko’p tomonlama innovatsion texnologiyalarni samarali amalga oshirish uchun didaktik vositalarning turli xillarini qo’llash bo’yicha bosqichma bosqich tashkiliy ishlarni amalga oshirish;

- o’quv predmetlarining turli vositalari bilan ularning uzviy birligida o’quvchi yoshlarda o’rganishga qiziqishini shakllantirish;

- o’qituvchilar va o’quvchi yoshlar o’rtasida ijodiy hamkorlikni amalga oshirish

Innovatsion texnologiya o’quvchi yoshlarning bilimi, ko’nikma va malakalarini ma’lum bir tizim asosida o’zgartirish samaradorligini oshiruvchi jarayondir.

Innovatsion texnologiyalar orqali o’qishning vazifalari, mazmuni, uslublari, vositalari, tashkil etish shakllari va natijalarida o’z aksini topishi kerak.

Shunday hollar bo’ladiki, o’qituvchi vaqtining tig’izligi tufayli o’quvchi yoshlar bilan suhbat-muloqot yoki to’liq savol-javob o’tkaza olmaydi. Ana shunday

hollarda zamonaviy innovatsion texnologiya usullaridan biri bo'lgan keys usulidan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Jismoniy madaniyat darslarida o'quvchi yoshlarning nazariy bilimlarini oshirish quyidagi hollarda ijobiy kechadi:

- muammoli vaziyatlarni mashg'ulot boshlanishida o'quvchi yoshlarga taklif etish yoki predmet mavzusini ifoda eta oladigan maxsus muammoli topshiriqlar berish;

- muammoli vaziyat orqali o'quvchi yoshlarning qiyinchiliklarini yengish, innovatsion usul va harakatlarni izlab topishni talab qilish;

- o'quvchi yoshlarning motivatsion doirasiga ta'sir o'tkazish ya'ni ikki harakatlanuvchi kuchini yuzaga keltirish, fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish;

- kreativ qobiliyatlarini kamol toptirish, ularga mantiqiy o'ylash, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;

- mustaqil fikrlab to'g'ri hulosalar chiqarishga tayyorlash;

- hayotda uchraydigan qiyinchiliklarni tahlil ertib, undan chiqib ketish darajasiga tayyorlash,

Bu usullar o'quvchi yoshlarda jahon andozasiga mos bilimlarni egallashlariga imkon beradi deb hisoblaymiz.

Ta'lim jarayoni murakkab, ko'p qirrali ijodiy o'zgarishni va doimiy rivojlanishni talab etadi. Ta'lim jarayonini faollashtirilgan o'qitish mazmunan yanada takomillashtirish – hozirgi davrda o'quvchilarni o'qitish sifati va tarbiyasi yanada samarali bo'lishini taqazo etadi. Bu o'z navbatida o'qitish nazariyasi va amaliyotida jiddiy kamchiliklarini bartaraf etish uchun fikr mulohazalar yuritish, hamda mavjud muammolarni birgalikda hal etish zarurligini talab etadi.